



MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING ISHONCHLI HAMKORI HISOBLANGAN YAPONIYA BILAN STRATEGIK SHERIKLIK YANGI BOSQICHDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichining taklifiga binoan 18-20-dekabr kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.



Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 20-dekabr kuni Tokioda “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotining birinchi sammitida ishtirok etdi.

Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichi raisligida o‘tgan tadbirda Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ham qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, Markaziy Osiyo davlatlari va Yaponiya o‘rtasida “yashil”

iqtisodiyot va barqaror rivojlanish, o‘zaro bog‘liqlik hamda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, inson resurslarini rivojlantirish kabi ustuvor sohalarda o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida bundan yigirma yil muqaddam aynan kunchiqar yurt ilk bor “Markaziy Osiyo +” muloqotining tashabbuskori bo‘lganini qayd etdi. Buyuk ipak yo‘li davridan rivojlana boshlagan yaqin savdo va madaniy aloqalar, o‘xshash an‘ana va urf-odatlar, ma‘naviy, madaniy va oilaviy

qadriyatlar Markaziy Osiyo va Yaponiya o‘rtasida ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam asos hisoblanadi.

— Biz Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishganidan keyingi davr mobaynida Yaponiya ishonchli hamkorimiz bo‘lib kelayotganini, mintaga ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, infratuzilma, sanoat va energetika bazasini modernizatsiya qilish, fan va ta‘lim hamda kadrlar salohiyatini mustahkamlashga salmoqli hissa qo‘shayotganini yuksak qadrlaymiz. Shu sababli Markaziy Osiyo davlatlari Yaponiyaning mintaga hayotida

yanada keng va faol ishtirok etishidan manfaatdor, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mintaqa tabiiy resurslarga boyligi, jahondagi transport, savdo va energetika yo‘nalishlari chorrahasida joylashgani, Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotining jadal sur‘atlarda o‘sayotgani hamda bu yerda kechayotgan yaqinlashish va integratsiyaning faol jarayonlari Yaponiya bilan kooperatsiya uchun qulay sharoit yaratmoqda.

— Ishonchim komil, birgalikdagi sa‘y-harakatlarimiz bilan yangi marralarga erishamiz. Donishmand yapon xalqi aytganidek, “agar kuchlar birlashtirilsa, tog‘larni ham o‘z o‘midan siljitish mumkin”, — dedi O‘zbekiston yetakchisi.

Prezidentimiz sammit kun tartibiga o‘tar ekan, “Markaziy Osiyo + Yaponiya” formatida hamkorlikni rivojlantirish yuzasidan o‘z nuqtayi nazarini taqdim etdi.

Avvalo, sammitlarni davlat rahbarlari darajasida har ikki yilda bir marta o‘tkazish taklif qilindi. Bu hamkorlikka qo‘shimcha kuchli sur‘at bag‘ishlashga xizmat qiladi. Navbatdagi shunday uchrashuvlardan birini O‘zbekistonda qabul qilishga tayyorlik bildirildi.

Yaponiyaning adliya va huquq sohasida hamkorlik bo‘yicha yangi doimiy mexanizmini yaratish va kelgusi yili Tokioda adliya vazirlarining birinchi uchrashuvini tashkil etish borasidagi tashabbusi qo‘llab-quvvatlandi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston “Markaziy Osiyo — Yaponiya 2040” hamkorlik strategiyasini ishlab chiqib, hujjatga mintaga mamlakatlarining barqaror rivojlanishiga ko‘maklashish va ularni global iqtisodiy jarayonlarga chuqur integratsiya qilish bo‘yicha aniq dastur va loyihalarni kiritish tarafdori ekanligini qayd etdi.

Yangi g‘oya va takliflarni ishlab chiqish, hamkorlikning keng ko‘lamli kun tartibini shakllantirish uchun mamlakatlarimizning yetakchi tahlil tuzilmalari ishtirokida Ekspertlar forumini ta‘sis etish muhimligi ta‘kidlandi. Forumning ilk majlisini kelgusi yili Toshkentda o‘tkazish taklif qilindi.

O‘zbekiston yetakchisi Yaponiya moliya institutlarining Markaziy Osiyoda savdo-

iqtisodiy va investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlashni kengaytirishini olqishladi.

— Ishonaman, Markaziy Osiyoning boy tabiiy va kadrlar resurslarini Yaponiyaning sanoat va texnologik salohiyati bilan birlashtirib, bir-birimizni to‘ldirish va kuchaytirish bo‘yicha samaraga erisha olamiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu munosabat bilan Markaziy Osiyoning infratuzilmasi va sanoatini rivojlantirish investitsiya jamg‘armasini ta‘sis etish taklif qilindi. Uning negizida “Sifatli infratuzilma” bo‘yicha dastur hamda Yaponiya texnoparklarining Markaziy Osiyo tarmog‘i — sanoat kooperatsiyasi, mahalliy lashtirish va texnologiyalar transferi mintaqaviy platformasini ishga tushirish mumkin.

Bugun raqamli transformatsiya iqtisodiy o‘sish va barqarorlikning hal qiluvchi omiliga aylanib borayotganidan kelib chiqib, davlatimiz rahbari “Markaziy Osiyo — Yaponiya” raqamli xabi — raqamli yechimlar, sun‘iy intellekt, “buyumlar interneti”, kibernetika va innovatsion iqtisodiyot sohalarida ko‘p tomonlama hamkorlik platformasini yaratish muhimligini qayd etdi.

Tezyurar poyezdlar va avtomobil yo‘llarini barpo etish, transport yo‘laklarini raqamlashtirish, aeroportlar va logistika markazlarini qurish loyihalariga Yaponiya investitsiyalari, texnologiyalari va ekspertlari ko‘magini jalb etishdan manfaatdorlik bildirildi.

“Yashil” energetika sohasidagi hamkorlik doirasida kogeneratsiya texnologiyalarini joriy etish, yo‘qotishlarni qisqartirish, zararli gazlarni ushlab qolish bo‘yicha birgalikda loyihalarni amalga oshirish muhimligi ta‘kidlandi. Toshkentda Qayta tiklanadigan energetika sohasida mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha mintaqaviy markazni tashkil etish taklifi ilgari surildi.

Davlatimiz rahbari ekologiya sohasida Markaziy Osiyoda havo sifatini yaxshilash bo‘yicha qo‘shma dasturni ishga tushirish, Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish yuzasidan qo‘shma harakatlar dasturini qabul qilish hamda Muloqot doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish idoralari rahbarlarining yangi shakldagi

uchrashuvlarini tashkil etish muhimligini qayd etdi.

Yaponiyaning seysmik xavfsizlik sohasidagi ulkan tajribasini hisobga olib, mintaqada seysmik barqarorlikni baholash va oshirish bo‘yicha qo‘shma dasturni ishga tushirish, Toshkent shahrida Yaponiya standartlari va protokollari bo‘yicha muhandislar, arxitektorlar, qutqaruv xizmatlarini tayyorlash uchun Mintaqaviy malaka oshirish markazini ochish taklifi qilindi.

Madaniy-gumanitar sohada hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida O‘zbekistonda kelgusi yili “Markaziy Osiyo + Yaponiya” formatida ta‘lim vazirlarining birinchi yig‘ilishini, shuningdek, mintaqadagi yetakchi universitetlar rektorlarining ilk forumini o‘tkazish, yoshlar hamjamiyatlari o‘rtasida uzoq muddatli aloqalarni shakllantirishga qaratilgan Yoshlarni rivojlantirish mintaqaviy tarmoq tashkiloti qabul qilish bo‘yicha rejalarni taqdim etildi.

O‘zbekiston yetakchisi xalqaro siyosat va mintaqaviy xavfsizlik masalalariga to‘xtalar ekan, mintaga davlatlari va Yaponiyaning Afg‘onistonni tinch, barqaror va bunyodkor rivojlanish sari borayotgan mamlakat sifatida ko‘rish borasidagi intilishlari yakkidligini ta‘kidladi.

Afg‘on xalqini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘p yillardan buyon yetakchi donor va sherik mamlakatlar qatorida bo‘lib kelayotgan Yaponiyaning izchil pozitsiyasi yuksak baholandi.

O‘zbekiston Prezidenti so‘zining yakunida kun tartibidagi barcha masalalar bo‘yicha qarorlarni qo‘llab-quvvatlashini bildirdi.

Sammitda boshqa yetakchilar ham nutq so‘zladilar. Tadbir yakunida Tokio deklaratsiyasi qabul qilindi.

“Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqoti sammiti doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ko‘p tomonlama biznes forumida ishtirok etdi.

Tadbirda Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichi, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ham qatnashdi.

[Davomi 2-beta](#)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEYEVNING “MARKAZIY OSIYO + YAPONIYA” BIRINCHI SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli Bosh vazir xonim oliyalari!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Yaponiya Bosh vaziri Takaichi xonim oliyalarga “Markaziy Osiyo + Yaponiya” birinchi sammiti yuksak darajada tashkil etilgani, go‘zal va jo‘shqin Tokioda ko‘rsatilayotgan samimiy mehmondo‘stlik uchun bildirilayotgan chuqur minnatdorlik so‘zlariga qo‘shilaman.

Ta‘kidlashni istardimki, bundan 20 yil muqaddam aynan kunchiqar yurt ilk bor “Markaziy Osiyo +” muloqotining tashabbuskori bo‘lgan edi. Ushbu qaror strategik jihatdan naqadar muhim va to‘g‘ri bo‘lganini vaqtning o‘zi ko‘rsatmoqda.

Ushbu sammitimiz, hech shubhasiz, tarixiy

ahamiyatga ega va hamkorligimizda yangi sahifa ochmoqda.

Bizning Yaponiya bilan yaqin savdo va madaniy aloqalarimiz Buyuk ipak yo‘li davridan rivojlana boshlaganini qayd etishni istar edim. Yaponiyaning qadimiy poytaxti Nara shahri, Siz tug‘ilgan maskan, hurmatli Bosh vazir xonim, ushbu yo‘ldagi eng muhim markazlardan biri bo‘lgan.

Bizni o‘xshash an‘ana va urf-odatlar, ma‘naviy, madaniy va oilaviy qadriyatlar ham yaqinlashtirib turadi.

Bularning barchasi Markaziy Osiyo va Yaponiya o‘rtasida ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam asos hisoblanadi.

Hurmatli Takaichi xonim!

Biz Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishganidan keyingi davr mobaynida Yaponiya ishonchli hamkorimiz bo‘lib kelayotganini, mintaga ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, infratuzilma, sanoat va energetika bazasini modernizatsiya qilish, fan va ta‘lim hamda kadrlar salohiyatini mustahkamlashga salmoqli hissa qo‘shayotganini yuksak qadrlaymiz.

Shu sababli Markaziy Osiyo davlatlari Yaponiyaning mintaga hayotida yanada keng va faol ishtirok etishidan manfaatdor. Va bu borada bizda taqdim etadigan takliflar bor.

Mintaqamiz tabiiy resurslarga boy, jahondagi transport, savdo va energetika yo‘nalishlari chorrahasida joylashgan. Markaziy Osiyo

mamlakatlari iqtisodiyotining o‘shisi 5-6 foizni tashkil etmoqda va bu sur‘at yaqin yillarda ham saqlanib qoladi.

Bugungi kunda mintaqada kechayotgan yaqinlashish va integratsiyaning faol jarayonlari Yaponiya bilan kooperatsiya uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Hurmatli Bosh vazir xonim, Markaziy Osiyo bilan strategik munosabatlarni rivojlantirish borasidagi qat‘iy intilishingiz uchun yana bir bor minnatdorlik bildiraman.

Ishonchim komil, birgalikdagi sa‘y-harakatlarimiz bilan yangi marralarga erishamiz. Donishmand yapon xalqi aytganidek, “agar kuchlar birlashtirilsa, tog‘larni ham o‘z o‘rnidan siljitish mumkin”.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Bugun mamlakatlarimiz o‘rtasida sheriklikni rivojlantirish bo‘yicha ilgari surilgan muhim tashabbuslarni to‘liq qo‘llab-quvvatlayman.

Hamkorligimizni strategik muhim yo‘nalishlarda mustahkamlashga qaratilgan Tokio deklaratsiyasi qabul qilinganini olqishlayman.

O‘z navbatida, “Markaziy Osiyo + Yaponiya” formatida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qarashlarimizni bayon etishni istar edim.

Birinchidan, sammitlarni davlat rahbarlari darajasida har ikki yilda bir marta o‘tkazishni taklif etamiz. Bu hamkorligimizga qo‘shimcha

kuchli turtki bag‘ishlashga xizmat qiladi. Navbatdagi bunday uchrashuvlarimizdan birini O‘zbekistonda qabul qilishga tayyormiz.

Yaponiyaning adliya va huquq sohasida hamkorlik bo‘yicha yangi doimiy mexanizmini yaratish va kelgusi yili Tokioda adliya vazirlarining birinchi uchrashuvini tashkil etish borasidagi tashabbusini qo‘llab-quvvatlaymiz.

Ikkinchidan, “Markaziy Osiyo — Yaponiya 2040” hamkorlik strategiyasini ishlab chiqish tarafdorimiz.

Ushbu hujjatga mintaga mamlakatlarining barqaror rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaymiz. Ushbu global iqtisodiy jarayonlarga chuqur integratsiya qilish bo‘yicha aniq dastur va loyihalarni kiritish mumkin bo‘ladi.

[Davomi 2-beta](#)



VOQEALAR ORTIDAN ERGASHISHNI EMAS, BIR QADAM OLDINDA YURISHNI AFZAL KO‘RADI

Xorijiy ekspertlar O‘zbekiston Prezidentining Yaponiyaga rasmiy tashrifi hamda “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqoti yetakchilarining birinchi sammiti yakunlari haqida

18-20-dekabr kunlari O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan Yaponiyada bo‘ldi hamda “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotining oliy darajadagi ilk sammitida ishtirok etdi.

Tokiodagi uchrashuv va tadbirlar O‘zbekistonning mintaqaviy jarayonlardagi kuchayib borayotgan mavqei

hamda yetakchi xalqaro sheriklar bilan ko‘p tomonlama hamkorlikni kengaytirish tamoyiliga sodiqligini yana bir bor tasdiqladi.

[Davomi 3-beta](#)

“OBOD XONADON”, “OBOD KO‘CHA”, “OBOD MAHALLA” TANLOVLARI G‘OLIBLARI TAQDIRLANDI



Islohotlar amalda

Poytaxtimizdagi O‘zbek milliy akademik drama teatrida O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tashabbusi bilan “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” ko‘rik-tanlovining respublika bosqichi g‘oliblarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda so‘zga chiqqanlar mahallani boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirishga qaratilayotgan e‘tibor jamiyatimizda erishilayotgan yutuqlarning muhim omili bo‘layotganini ta‘kidladi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida bu yo‘nalishdagi ishlar ko‘lami kengaymoqda.

[Davomi 3-beta](#)



O‘ZBEKISTON FAOL, DADIL VA KO‘PQIRRALI DIPLOMATIYANI TANLAYDI

VOQEALAR ORTIDAN ERGASHISHNI EMAS, BIR QADAM OLDINDA YURISHNI AFZAL KO‘RADI

Boshlanishi 1-betda

Eksptlar va xalqaro tahliiy hamjamiyat vakillari ushbu tadbirlar yakunini baholar ekan, ular “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotini o‘zaro institutsional rivojlantirishga muhim hissa qo‘shgani, shuningdek, mintaqamamlakatlarining Yaponiya bilan siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalarida barqaror

va manfaatli muloqot o‘rnatishga intilishini namoyish etganini ta’kidladi.

Mutaxassislar mazkur uchrashuvlarning mintaqaviy kooperatsiyani mustahkamlash va Markaziy Osiyoning xalqaro nufuzini oshirishdagi strategik ahamiyatini alohida qayd etmoqda.

bugun xalqaro kun tartibida shunchaki ishtirok etmayotgani, aksincha tobora ishonch bilan uning qoidalarini va parametrlarini shakllantirishda qatnashayotganini ko‘rsatadi.

Ushbu tashrif O‘zbekistonning yangi tarixidagi eng sermazon va faol tashqi siyosiy davrlardan biri bo‘lgan 2025-yilga to‘laonli mutanosib bo‘ldi. Shavkat Mirziyoyev siyosati yangi imkoniyatlarni ochuvchi aniq yo‘nalishlarga asosan qurilmoqda: xalqaro aloqalar geografiasini muttasil kengayib bormoqda, ularning mazmuni esa chuqur va amaliy tus olmoqda. Shu fonda Markaziy Osiyo asta-sekin “chekka hudud” bo‘lishdan to‘xtab, Yevroosiyoning transport, energetika va investitsiyalar sohasida nufuzi ortib borayotgan mustaqil tuguniga aylanib bormoqda. Aynan O‘zbekiston bugun mintaqani yangi energiya va ma’no bilan to‘ldirgan holda ushbu jarayonga jadal sur‘at bermoqda.

O‘zbekiston infratuzilmasini modernizatsiya qilishga yo‘naltirilgan Yaponiya investitsiyalari hamkorlikning mustahkam iqtisodiy asosini tashkil etadi. Bu shunchaki tarqoq loyihalar yoki bir martalik qadamlar emas, balki necha yillarga mo‘ljallangan tizimli ishdur.

Muloqotning iqlimiy va gumanitar jihatlarini, ayniqsa, O‘zbekistonda “Atrof-muhitni muhofaza qilish va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilingan yil fonda alohida e’tiborga loyiq. Markaziy Osiyo uchun iqlim o‘zgarishi allaqachon mavhum mavzu bo‘lishdan to‘xtagan: muzliklar erishi tezlashmoqda, suv kamaymoqda, harorat yildan yilga ko‘tarilmoqda. Bunday sharoitda Yaponiyaning qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, “yashil” texnologiyalar va favqulodda vaziyatlardan ogohlantirish tizimlari sohasidagi tajribasi nafaqat amaliy, balki strategik ahamiyat kasb etadi. 900 dan ortiq mutaxassisning Yaponiya ta’lim dasturlari bo‘yicha tayyorlanishi esa “yashil” transformatsiyaning mustahkam kadrlar poydevorini yaratadi, ekologik kun tartibini mustahkamlaydi va Tokio bilan Toshkentni uzoq muddatli jonli aloqalar bilan bog‘laydi.

Geosiyosiy o‘lcham ham muhimligicha qolmoqda. Tabiiy va texnologik resurslar uchun raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda Yaponiya Markaziy Osiyoga teng huquqlilik va suveren manfaatlarini hurmat qilishga asoslangan hamkorlik modelini taklif etmoqda. O‘zbekistonning xalqaro maydondagi Yaponiya tashabbuslarini faol qo‘llab-quvvatlashi, ijtimoiy sohadan tortib xavfsizlik, energetika va transport infratuzilmasini rivojlantirishgacha bo‘lgan qo‘shma loyihalar ikki tomonlama munosabatlarning yuqori ishonch va yetuklik darajasini ko‘rsatadi.

Tashrif jarayonini kuzatar ekanman, siyosat, iqtisodiyot va institutlarning bir-birini o‘zaro kuchaytiruvchi nozik uyg‘unligiga guvoh bo‘ldim. 20-dekabr kuni ushbu mantiq “Markaziy Osiyo + Yaponiya” sammitida, ikki tomonlama muzokaralarda va Yaponiya Bosh vaziri bilan o‘tkazilgan rasmiy uchrashuvda o‘z aksini topdi. Bulaming barchasi O‘zbekiston

Andrey GROZIN, MDH davlatlari instituti O‘rta Osiyo va Qozog‘iston bo‘limi mudiri, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi:

Fikrimcha, Yaponiya bilan sheriklik O‘zbekiston tashqi siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekistonning pragmatik siyosati, ya’ni imkon qadar keng ko‘lamli yo‘nalishlar bo‘yicha o‘zaro manfaatli iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish mazkur tashrifning asosini tashkil etadi.

Yaponiya mintaqamarkazi — O‘zbekiston bilan sheriklikdan manfaatdor. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Prezidentining tashrifi har ikki tomon — ham Tokio, ham Toshkent uchun muhim ahamiyatga ega deb bilaman.



Umuman, ikki mamlakatning o‘zaro hurmati va manfaatlariga urg‘u berilgan holda o‘tgan ushbu tashrif Markaziy Osiyo mintaqasida transport infratuzilmasini yaxshilash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.



Rustam BURNASHEV, qozog‘istonlik ekspert, falsafa fanlari nomzodi, professor:

— Yaponiya tomoni, xususan, Imperator Naruxito O‘zbekiston Prezidentining tashrifini O‘zbekiston — Yaponiya do‘stlik va strategik sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlashdagi muhim voqea deb baholadi. Ushbu baho O‘zbekiston tomoni uchun ham xosdir.

Tashrifning muhim tarkibiy qismlaridan biri Prezident Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyada mehnat qilayotgan va tahsil olayotgan o‘zbekistonliklar bilan uchrashuvi bo‘ldi. Bu ko‘p jihatdan ta’lim, kadrlar tayyorlash hamda madaniy-gumanitar almashinuv sohasidagi hamkorlik O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning eng jadal rivojlanayotgan segmenti ekanini ko‘rsatdi.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Prezidenti va Yaponiya Parlamenti Maslahatchilar palatasi prezidenti uchrashuvida yosh parlamentariylarning tashabbuslari, jumladan, O‘zbekiston va Yaponiya yosh parlamentariylari forumi hamda Yaponiya

delegatsiyasining 2026-yilda Samarqandda o‘tkazilishi rejalashtirilgan Global yosh parlamentariylar konferensiyasida ishtirok etishi masalalari markaziy mavzu bo‘lgani diqqatga sazovor.

O‘zbekiston yetakchisining Yaponiyaga tashrifi aniq ifodalangan pragmatik xarakterga ega. Buni Yaponiya iqtisodiyot, savdo va sanoat vaziri Ryosei Akadzava bilan o‘tkazilgan uchrashuv yakunlari ham tasdiqlaydi. Unda savdo-investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish hamda muqobil energetika, dekarbonizatsiya va o‘ta muhim xomashyo kabi sohalarida qo‘shma loyihalarni ilgari surish masalalari muhokama qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyaga tashrifi doirasidagi markaziy voqealardan biri uning “Markaziy Osiyo + Yaponiya” sammitidagi ishtiroki bo‘ldi. Aynan Yaponiya 2004-yilda bunday formatdagi uchrashuvlarning birinchi mintaqadan tashqaridagi ishtirokchisi va tashabbuskori

Yan CHEN, Shanxay xalqaro tadqiqotlar universiteti huzuridagi Shanxay global boshqaruv va mintaqaviy tadqiqotlar akademiyasi direktori, professor:



— “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqoti mintaqaviy rivojlanish, iqtisodiy barqarorlik, ekologiya, energetika va xavfsizlik masalarida muvofiqlashuv hamda hamkorlikning muhim vositasidir. Oliy darajadagi birinchi sammit Markaziy Osiyo mamlakatlarining siyosiy jipslashuvi orib borayotgani va Yaponiya bilan sheriklikni chuqurlashtirishga intilishini tasdiqladi.

Ushbu sammit mintaqaning barqaror rivojlanish masalalarini muhokama qilish uchun yangi va samarali platformaga aylandi.

Tokio an’anaviy ravishda JICA va JBIC tashkilotlari orqali mintaqadagi infratuzilma tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlab, transport koridorlari, logistika markazlari va energetika obyektlarini modernizatsiya qilishda ishtirok etib kelmoqda. Bunday loyihalar mintaqaviy bog‘liqlikni oshiradi va Markaziy Osiyoning Sharq bilan G‘arb o‘rtasidagi logistika ko‘prigi sifatidagi o‘mini mustahkamlaydi.

“Yaponiya O‘zbekistonda tashkil etilayotgan ishlab chiqarish quvvatlariga yuqori ekologik va texnologik standartlarni joriy etishga ko‘maklashishi mumkin. Bu mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi hamda nafaqat Yaponiya, balki boshqa jahon bozorlariga ham yo‘l ochadi.

Muloqot doirasida O‘zbekiston faol va konstruktiv pozitsiyani egallab, o‘zaro hamkorlikni kengaytirish, chegaralar xavfsizligini mustahkamlash, iqlim va ekologik muammolarga



bo‘lgan edi. O‘sha vaqtidagi Yaponiya tashqi ishlar vaziri Yoriko Kavaguti so‘zlari bilan aytganda, bu format ko‘p tomonlama hamkorlikning “yangi o‘lchami” sifatida taqdim etilgan.

Ushbu muloqotning o‘ziga xosligi shundaki, u xilma-xillikni hurmat qilish, raqobat va muvofiqlashirish, shuningdek, gumanitar almashinuv tamoyillari asosida qurilgan. Yaponiya tomoni Markaziy Osiyo davlatlari

bilan aynan mintaqaviy darajada hamkorlik qilish muhimligini tizimli ravishda ta’kidlab keldi. Bu esa 2000-yillardagi murakkab mintaqaviy jarayonlar davrida Markaziy Osiyoda mintaqaviy o‘zlikni saqlash va rivojlantirish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qildi.

Biroq shu vaqtga qadar ushbu muloqot “vazirlar darajasida” edi. Yaponiyadagi hozirgi uchrashuv oliy darajadagi birinchi tadbirdir. Bu holat Markaziy Osiyo mamlakatlari va Yaponiya o‘rtasidagi hamkorlikka qo‘shimcha sur‘at bag‘ishlashi kutilmoqda.

Nihoyat, yana bir prinsipial muhim jihat shundaki, “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqoti boshqa “S5+” forumlaridan farqli o‘laroq, ishlabarmon va ilmiy doiralarda uchrashuvlarini, ya’ni “ikkinchi darajali diplomatiya”ni ham qamrab oladi. Bu esa muloqotni shunchaki siyosiy va diplomatik tadbirdan Markaziy Osiyoda mintaqaviy bog‘liqlikni mustahkamlashga qaratilgan real hamkorlik mexanizmiga aylantiradi.

“Dunyo” AA

“OBOD XONADON”, “OBOD KO‘CHA”, “OBOD MAHALLA”

Boshlanishi 1-betda

Xususan, mahallalar infratuzilmasini yaxshilash, shahar va qishloqlar, aholi yashash maskanlari qiyofasini zamonaviylashtirish bo‘yicha qator loyihalar hayotga tatbiq etilyapti. Jumladan, xizmat binosiga ega bo‘lgan 369 ta mahalla bino bilan ta’minlandi, 284 tasiga yangi bino qurib berildi, 1178 tasi rekonstruksiya qilindi.

Mahalla instituti faoliyatida zamonaviy texnologiyalar keng qo‘llanmoqda. Shunday loyihalaridan biri “Raqqamli mahalla” platformasidir. U orqali fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy holati va mahalladagi dolzarb muammolar tizimga kiritildi. Shu bilan birga, migratsiya muammolariga e’tibor qaratilib, chet elga ketgan va qaytganlarning bandligini

ta’minlash, shuningdek, xorijiy til va kasbga o‘rgatish uchun maxsus “Migratsiya” moduli ishga tushirildi.

Mahallalarda tozalik va obodonlashtirish loyihalarini hayotga tatbiq etish ham doimiy e’tiborda. Shu maqsadda so‘nggi yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari, “Obod ko‘cha”, “Obod xonadon”, “Obod mahalla” mezonlari, “Yashil makon” umummilliy loyihasi keng tatbiq etilmoqda.

Birgina “Obod ko‘cha”, “Obod xonadon”, “Obod mahalla” mezonlarining hayotga tatbiq etilishi tufayli har bir xonadon, har bir ko‘cha va mahallaga bunyodkorlik ruhi kirib



bordi. Mahallalar qiyofasi tubdan o‘zgarib, tadbirkorlik, bunyodkorlik muhiti kuchayib boryapti.

Bunday yutuqlar barobarida qilinadigan ishlar ham ko‘p. Masalan, chiqindi bilan bog‘liq holatni olaylik. Ko‘chalar, yo‘llar va belgilanmagan turli joylarga chiqindi tashlab ketish holati tez-tez uchrab turibdi. Bu muammo shahar va qishloqlar qiyofasiga putur yetkazish barobarida, jamoatchilik ongi, yoshlar tarbiyasiga ham, albatta, salbiy ta’sir qiladi. Ayniqsa,

aholi va sayyohlar gavjum hududlarda bunday holatlarning yuzaga kelishi tashvishli holat.

Bunday muammolarga qarshi kurashish, ularga jamoatchilik e’tiborini qaratish dolzarb vazifadir. Shunga o‘xshash kamchiliklarni bartaraf etishda odamlarning yurt obodligiga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirish juda muhim. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tashabbusi bilan o‘tkazilayotgan “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” respublika ko‘rik-tanlovining bu borada ahamiyati katta.

Tanlov to‘rt bosqichda barcha mahalla, ko‘cha va xonadonlarni qamrab olgan holda uyushqoqlik bilan tashkil etildi. Joylardagi madaniyati uylari, ma’naviyat va yoshlar markazlari hamda boshqa zamonaviy inshootlarda o‘tkazilgan ushbu tadbirlarga 2 milliondan ortiq kishi jalb etilgan tanlovning ommaviyligini ta’minladi.

Tanlovning respublika bosqichi g‘oliblari munosib rag‘batlantirildi. Jumladan, “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod

mahalla” nominatsiyalari bo‘yicha 1-o‘rin sohiblariga Prezident sovg‘asi — avtomobil topshirildi. Shuningdek, barcha bosqich g‘oliblari qimmatbaho esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Ko‘rik-tanlov natijasida mamlakat miqyosida 100 ta “Obod xonadon”, 100 ta “Obod ko‘cha” va 100 ta “Obod mahalla” yetakchilari aniqlanib, ularning ilg‘or tajribasi, tashabbusi va loyihalarini keng joriy etish hamda qo‘llab-quvvatlash zarurligi belgilandi.

— Ozodalik bor joyda fayzu baraka, ijtimoiy faollik va taraqqiyot bo‘ladi, — deydi O‘zbekiston mahallalari uyushmasi boshqarma boshlig‘i Jamshid Choriyev. — Bu boradagi xayrli ishlar aynan mahallalardan boshlanayotgani juda muhim. Chunki mahalla Vatan ichra mo‘jaz vatandir. Uning obodligi yurt obodligi va mamlakat farovonligiga xizmat qiladi. Shu ma’noda, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tashabbusi bilan bu jabhada qilinayotgan ishlar mahalla institutining o‘rni va nufuzini yanada oshirish, aholi o‘rtasida obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va tozalik g‘oyalarini keng targ‘ib qilishda samara berayotir.

“Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” ko‘rik-tanlovi ham xalqimizning mazkur yo‘nalishdagi milliy qadriyatlarini keng targ‘ib etish hamda aholining islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirishga xizmat qiladigan muhim ijtimoiy tashabbus sifatida ahamiyatini namoyon etdi.

Bahor XIDIROVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Hakim YO‘LDOSHEV olgan suratlar.



Bag'dod tumanidagi "A.Madaminov" ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi ish boshqaruvchisi Abdushukur Abdumutallibov "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Bu yil 34 yoshni qarshi olgan ish boshqaruvchining bunday yuksak e'tirofga munosib ko'rilgani bejiz emas, albatta.


Abdushukur bolaligidan aka-opalari etagidan tutib, dalada mol-qo'y boqib ulg'aydi. Yer shudgorlash, ekin ekish, yig'im-terim bilan bog'liq jarayonlar u uchun begona emas. Yillar davomida bobosi — keksa agronom Abdumutallib boboga, otasi Shuhratjonga imkon qadar ko'mak berdi. U kasbiga mehr qo'yib qadrdon dalalarda ulg'aydi. Bu qiziqish yig'itni Toshkent davlat agrar universiteti tomon yetakladi. Bakalavr va magistrlik darajasini olib, bir muddat yoshlarga dars berdi. Ammo bobo yer, oddiy qishloq odamlariga mehr uni ko'hna Samandarak qishlog'iga qaytishga undadi. Albatta, bu yerda uning qiladigan ishlari, orzu-maqsdalari ko'p edi. Shu bois, yeng shimarib ishga kirishdi. Maqsadi sohaga ilm-fan, yangi texnologiya va xorij tajribasini joriy etish edi. Chunki mamlakatimizda qishloq xo'jaligini isloh qilish yo'lida yangi davr boshlangan, dehqon, fermer, tomorqachi va

tadbirkorlarga yer-suvdan foydalanishda keng imkoniyat berilayotgan edi.

— Fermer xo'jaligimiz tashkil etilganida bor-yo'g'i 17 gektar yerimiz bor edi. Hozir bu ko'rsatkich 250 gektarga yetdi, — deydi Abdushukur Abdumutallibov. — Bu yil 125 gektar yerga g'alla ekib, har gektardan 80 sentner hosil oldik. Paxtachilikda ham yuqori natijaga erishdik. Xorijdan chig'it olib kelib, 106 gektarga ekib, yuqori hosil olishga harakat qildik. Shundan 25 gektarida "Shinjon tajribasi" asosida plyonka ostida qo'shqor usulda paxta yetishtirdik. Izlanishlar besamur ketmadi. Hosilni to'liq terim mashinasi yordamida yig'ib oldik. Umumiy hosildorlik 60 sentnerdan oshdi. Turkiyadan olma ko'chati olib kelib, 20 gektarda intensiv bog' barpo etganmiz. Dastlabki hisob-kitobga ko'ra, joriy yilda dehqonchilikdan 2 milliard so'mdan ortiq sof daromad olamiz. Bu yangi texnika va texnologiyalar sotib olish, ishchi-xizmatchilar manfaatdorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Fermer xo'jaligining asosiy ekin maydoni Markaziy Farg'onaning Qiziltepa massivida joylashgan qumloq yerdan iborat. Bunday joydan ko'zlangan hosil olish uchun fermer bilim va tajriba uyg'unligida ishlashi kerak. Shu bois, fermer izlanishdan to'xtab qolgani yo'q. Joriy yil paxta mavsumida "Shinjon tajribasi"dan tashqari, Xitoy va Turkiyadan 6 xil chig'it olib kelib, mahalliy sharoitda sinab ko'rdi. Mavsum davomida hamkorlar dalasida bo'lib, amaliy ish jarayoni bilan tanishdi, tajriba to'pladi.

— Bundan yetti-sakkiz yil avval bitta loyihani ishga tushirish qiyin edi, — deydi fermer. — Turli to'siq, qog'ozbozliklari ortidan yillab saron bo'lishimizga to'g'ri kelardi. Ishlab chiqarishga sarmoya kiritmoqchi bo'lgan



25 GEKTARIDA "SHINJON TAJRIBASI" ASOSIDA PLYONKA OSTIDA QO'SHQATOR USULDA PAXTA YETISHTIRDIK.

investorlarning huquq va manfaati to'liq himoyalangan edi. Bugun barchasi o'zgardi. Ishlayman deganga imkoniyat, imtiyozlar berilyapti. Muhimi, yangi texnologiyalar asosida ishlay boshladik. Masalan, endi ekin maydonlari holatidan kelib chiqib, fosforli va mahalliy o'g'itlar bilan oziqlantirishni yo'lga qo'yamiz. Avval hamma yerga bir xil munosabatda bo'lardik. Yer holati, talab va taklifini o'rganmay ishlaganmiz. Bu ortiqcha xarajata sabab bo'lib, hosil tannarxini oshirgan. Bundan tashqari, asosiy e'tiborni suv tejovchi texnologiyalarga qaratdik. O'tgan mavsumda 25 gektar yerda tomchilatib sug'orish tizimini yo'lga qo'ygan bo'lsak, hozir bu ko'rsatkich ikki hissa ortdi. G'alla maydonlarini ham tomchilatib sug'oryapmiz. Yangi usul urug'ning bexato ko'karishini ta'minlaydi. Qolaversa, ekinni bir me'yorda sug'orish va oziqlantirishda samara beradi. Shu maqsadda fermer xo'jaligimiz huzurida "Suvchilar maktabi" tashkil etilyapti. Bu yerda

malakali mutaxassislar fermer va tomorqa yer egalariга suvni tejash, yangi texnika va texnologiyalarni amaliyotda qo'llash borasida mashg'ulot o'tkaziladi. Shuningdek, donni qayta ishlash, meva saqlash, qayta ishlash, qadoqlash yo'nalishlarida yangi loyihalarni amalga oshirishga harakat qilyapmiz. Prezidentimiz bizni nafaqat fermer, balki davlat va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shayotgan, aholi farovonligini oshirish, bandligini ta'minlash, hududlar obodligi yo'lida samarali xizmat qilayotgan ishlohotchi sifatida e'tirof etgan. Doim biz bilan muloqot qilib, soha ilg'orlarini rag'batlantirib kelmog'da. Bu, o'z o'mida, yangi tashabbuslarga qanot bo'lyapti. Ehtirom, hurmat-izzat o'z-o'zidan bo'lmaydi, albatta. Prezidentimiz Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni munosabati bilan soha vakillari bilan uchrashuvda fermer, paxta va g'allachilik klasterlariga yanada ko'plab imtiyoz va imkoniyatlar berdi. Dalalarda tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etishga imtiyozli

kredit ajratish, mablag'idan paxta yetishtirgan fermerlarga hosilning 10 foizigacha qismini subsidiyalash tizimi haqidagi tashabbuslardan minnatdor bo'ldik.

Fermer xo'jaliklari dala chetidagi yerlarni o'zlashtirib, sabzavot va mevali ekinlar ekmoqda. Shu orqali qo'shimcha daromad olish tajribasi ommalashib bormog'da. Ezgu maqsad yo'lida boshlangan tashabbus rufayli yashil maydonlar, bog'-rog'larga barpo etilyapti. Asalarichilik, chorvachilik tarmoqlari

FERMER XO'JALIGIMIZ HUZURIDA "SUVCHILAR MAKTABI" TASHKIL ETILYAPTI.



rivojlanib, hududlar obod va fayzli bo'lib bormog'da.

— Shu kungacha dala chetiga ko'p ham e'tibor qilmasdik. Yer o'z holiga tashlab qo'yilgani bois, o't-o'landan boshqa narsa o'smasdi, — deydi fermer xo'jaligi rahbari, keksa agronom Abdumutal Madaminov. —

Bugun manzara, holat o'zgardi. Har bir qarich yer hisob-kitobi. Dala chetidan maqsadli foydalanish borasidagi ishlari sabab shu kungacha 16 gektar yangi ekin maydoni ochildi. Natijada 20 ming tup terak, mevali daraxt ko'chatlarini ekkdik. Bir gektarda baliqchilik tarmog'i faoliyatini yo'lga qo'ydik.

Tartib bilan ekilgan manzarali va mevali daraxtlar e'tiborni tortadi. Yerga yer qo'shib, dalaga dehqonchilik madaniyati olib kiritildi. Uni yaqinda ham qarovsiz, tashlandiq joy bo'lgan desangiz hech kim ishonmaydi. O'zlashtirilgan yer hisobiga hosildorlik ham oshdi. Sababi, quyosh haroratida obdan "kuygan" tuproq ekin maydoniga tashib olindi. Bu samara berdi. Avval 20-25 sentnerga yetkazib g'alla olingan bo'lsa, bugun bu ko'rsatkich to'rt hissa oshdi.

Fermer xo'jaligi bir necha kundirki, mehmonlar bilan gavjum. Oddiy ishchining mehnati va izlanishlari e'tirofga munosib ko'rilganidan barcha minnatdor. Baxtni

mehnatdan topgan, ona zamin bilan tillashish va dillashish hadisini olgan fermer qadrdon dalasini bir dam bo'lsa-da unutgani yo'q.

Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Mulohaza

Insoniyat taraqqiyoti tarixiga nazar tashlasak, har bir sivilizatsiyaning qudrati uning moddiy boyliklariga emas, balki shu boyliklarni anglash, qayta kashf etish va ular orqali yangi ixtiro yaratish qobiliyatiga bog'liq bo'lganini ko'ramiz. Tabiat insonga bergan ne'matlar orasida ba'zi resurslar borki, ular faqat sanoat yoki iqtisodiyot uchun emas, balki insoniyatning kelajagiga ta'sir qiladi. Volfram ana shunday yangi davr resurslaridan.

Bugun dunyoda sanoat birgina metallga emas, balki innovatsiyaga, intellektual salohiyatga tayana boshladi. Volfranning fizik kuchga ega metall sifatidagi qiymati — haqiqiy qudratining bir bo'lgi, xolos. Uning asl ahamiyati insoniyatning yuqori harorat va ulkan bosimga chidamli material yaratish orqali tabiat qonuniyatlarini yanada chuqur anglashga intilganida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, volfram texnologiyaning emas, aqlning mustahkamligini ham ifoda etuvchi ramzdir.

Global iqtisodiyotda volframing "energiya valyutasi" sifatida qadr topayotgani dunyo yangicha tartibga, yangicha mantiqqa suyanib qadam qo'yayotganini anglatadi. Bugun energetika, aviatsiya, mashinasozlik, kosmik texnologiyalar va yashil innovatsiyalar o'zaro bog'liq ulkan tizimga aylandi. Bu tizimda kim resursga ega bo'lsa emas, balki kim undan barqaror va ilmiy bilimiga tayangan tarzda foydalana bilsa, o'sha ustunlikka erishadi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan barpo etilgan O'zbekiston texnologik metallar kombinati faqat sanoat korxonasi emas, balki resurslarning yangi qiyofada qayta kashf etilishi va yurt kelajagini texnologik ruhdan yangidan qurishga intilishning amaliy ifodasidir. Kombinat bugun volfram ishlab chiqarish sohasida ilg'or texnologiyalar va integratsiyalashgan ishlab chiqarish modellari orqali mamlakatimizning global volfram maydonida ishonchli hamkor sifatidagi pozitsiyasini mustahkamlashga yo'naltirilgan kompleks loyihalarni amalga oshirmog'da.

Xususan, bu yil Texnologik metallar kombinati (TMK) Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib Xalqaro volfram sanoati assotsiatsiyasiga to'laqonli a'zo sifatida qabul qilindi. Bu a'zolik mamlakatimizning global texnosavdo hududida o'z so'zi, mavqei va mas'uliyati bor subyektiga aylanib borayotganini anglatadi. Zero, har



qanday resursga egalikdan ko'ra, undan to'g'ri, ilmiy va jahon tartibiga uyg'un tarzda foydalana bilish yangi davr sivilizatsiyasining asosiy mezonidir.

Kombinatning bugungi faoliyati volfram zanjirining barcha bosqichini — apstrim (upstream), midstrim (midstream) va daunstrim (downstream) jarayonini qamrab olgan mukammal ekotizim sifatida shakllanmog'da. Bu yondashuv shunchaki sanoat strategiyasi emas, balki resursni xomashyodan qiymatga, qiymatdan esa strategik ustunlikka aylantira oladigan yangi iqtisodiy tafakkur ifodasidir.

Apstrim (yuqori) bosqichi doirasida kombinat mamlakatining Sariko'l, Ingichka va Sautbay hududlarida keng ko'lamli qidiruv hamda o'zlashtirish ishlarini bajarmog'da. Sariko'l konining o'zlashtirilishi, ayniqsa, alohida mazmunga ega: umumiy sanoat zaxiralari istiqbol bilan birga hisoblaganda, 30 ming tonnadan ortiq volfram metalli mamlakatimizning texnologik kelajagini belgilaydi. Mazkur yerda barpo etilayotgan ishlab chiqarish majmuasi

yiliga 1 million tonna rudani qayta ishlash quvvatiga ega bo'ladi va xalqaro talablarga javob beradigan 65 foizli volfram konsentratini chiqariladi. Bu esa sanoat ko'rsatkichi emas, balki yurtimiz innovatsion qudratining amaliy ifodasi.

Texnologik metallar kombinati bu loyiha orqali nafaqat metall, balki inson kapitalini ham yaratishga ahamiyat qaratmog'da: 400 dan ortiq mutaxassis va mahalliy aholi vakillari uchun barqaror ish o'rinlari ochilishi rejalashtirilgan. Chunki resursni rivojlantirish insonni rivojlantirishdan boshlanadi.

Ingichka konidagi modernizatsiya jarayoni ham bu sa'y-harakatlarni tasdiqlaydi. Xitoyning "Xinhai" va "Red Persimmon" kompaniyalari bilan hamkorlikdagi loyihalar natijasida qayta ishlash hajmi bir necha barobar oshirilmog'da. Jumladan, volfram konsentratini dastlab 300 tonnadan 1050 tonnaga, keyinchalik esa 5040 tonnagacha yetkazish ko'zda tutilgan. Mazkur iqtisodiy o'sish ishonch, tajriba va xalqaro texnologik uyg'unlik mahsulidir.

Yangi sanoat loyihalarining ishga tushishi natijasida yuzaga keladigan o'sish dinamikasi — oddiy statistika emas, balki tarkibiy iqtisodiy yuksalishning belgidir. Xomashyo yo'nalishida volfram konsentratini ishlab chiqarishning 300 tonnadan 14 ming 950 tonnagacha, ya'ni 50 barobar o'sishi, qayta ishlashda angidrid hajmining 76 tonnadan 4860 tonnaga, tayyor mahsulotda esa metall hajmining 58 tonnadan 1860 tonnagacha ko'tarilishi milliy sanoat yangi bosqichga chiqayotganini anglatadi.

Hamkorlikdagi barcha ishlarning markazida bitta g'oya yotadi: tabiiy resursga egalik qilish hamda uni to'g'ri yo'naltirish va chuqur qayta ishlash. Xorijlik sheriklar bilan birga olinayotgan volfram konsentratini aynan shu mantiq asosida kombinatga yetkazilib, metall volfram ishlab chiqarishning klyuch bosqichiga yo'naltiriladi. Bu jarayonda xomashyo o'z qiymatini, metall mohiyatini topadi.

Shu bilan birga, kombinat xomashyo manbalari bilan cheklanib qolmay, kelajakni ham izlamog'da: Tomchali va Qoraqiya kabi istiqbolli maydonlarda xalqaro standartlarga muvofiq geologik qidiruvlar olib borilmog'da.

bosqichi. Bunda metall o'zining eng yuksak qadriini topadi: xomashyodan mahsulotga, mahsulotdan esa milliy qiymatga aylanadi. Kombinat bu bosqichda "Made in Uzbekistan" sanoat brendini kritik mineralar sohasida jahon maydonida mustahkamlashga intilmog'da. Bugun bu yerda volfram briket va shtabiklari, karbid asosidagi volonkalar, qattiq qotishmalari frezalar, burg'ilar, elektrodlar, burg'ilash asboblari va koronkalar ishlab chiqarilmog'da.

Kombinat ishlab chiqarish jarayonini raqamlashtirish, avtomatlashtirish, energiyatejamkor va ekologik xavfsiz texnologiyalardan foydalanish, ESG va IRMA

standartlarini joriy etish bilan sanoatni metall ishlab chiqarishdan kelajak yaratish darajasiga olib chiqmog'da.

Bugun O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan yuqori qo'shilgan qiymatli volfram mahsulotlari mahalliy sanoat rivojining ifodasi bo'lish bilan birga mamlakatning texnologik salohiyatini dunyoga namoyon etuvchi strategik belgidir. Yevropa va AQSHning muvofiq kompaniyalariga yetkazib berilayotgan mahsulotlar — milliy ishonch va xalqaro tan olinish mevasi. Shu bilan birga, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi texnologik markazlar bilan hamkorlik kengayayotgani O'zbekistonning jahon bozoridagi ishtirokini geografik emas, intellektual ko'lamda ham ifoda etadi.

Yangi sanoat loyihalarining ishga tushishi natijasida yuzaga keladigan o'sish dinamikasi — oddiy statistika emas, balki tarkibiy iqtisodiy yuksalishning belgisi. Xomashyo yo'nalishida volfram konsentratini ishlab chiqarishning 300 tonnadan 14 ming 950 tonnagacha, ya'ni 50 barobar o'sishi, qayta ishlashda angidrid hajmining 76 tonnadan 4860 tonnaga, tayyor mahsulotda esa metall hajmining 58 tonnadan 1860 tonnagacha ko'tarilishi milliy sanoat yangi bosqichga chiqayotganini anglatadi.

Bu loyihalarining iqtisodiy samarasi ham yuqori: investitsiya qiymati 103,9 million dollar, mahsulot ishlab chiqarish hajmi 5,5 million dollarlikdan 280 million dollarlikkacha, eksport salohiyati esa 2,4 million dollardan 181,5 million dollargacha o'sishi kutilmog'da. Eng muhimi 5000 dan ortiq yangi ish o'rnini ochilishidir.


O'zbekiston global volfram bozoridagi o'rini mutlaqo yangi darajaga olib chiqmog'da. 2030-yilga borib, mamlakatning zaxiralari bo'yicha ulushi 2 foizdan 5,1 foizga, qazib olish bo'yicha 0,05 foizdan 14,8 foizgacha oshishi kutilyapti. Bu esa mamlakatimizning sohada faqat ishtirokchi emas, balki trend belgilay oladigan kuchga aylanayotganini ko'rsatadi.

Bugun dunyo volfram ta'minot zanjirida barqaror, ishonchli va shaffof manbalarni izlamog'da. Izlanishlar zahirida bir haqiqat yotadi: yuqori texnologiyalar faqat sifati resursga emas, balki prognozli, mas'uliyatli va barqaror sheriklarga tayandir. Prezidentimizning uzoqni ko'ra bilan strategik siyosati tufayli esa O'zbekiston bu ehtiyojga javob bera oladigan mamlakatlarga aylanmog'da.

Shu jarayonda Texnologik metallar kombinati global volfram ta'minot zanjirini to'ldiruvchi emas, balki uni yangidan shakllantiruvchi kuch. Kombinat o'z loyihalarini orqali O'zbekistonning jahon sanoatidagi mavqegini mustahkamlab, mamlakatni ishonchli hamkor, barqaror mahsulot yetkazib beruvchi va ko'rsatkichlar bo'yicha yetakchi davlatlar qatoriga olib chiqishni maqsad qilgan.

Sardor TOLLIBOYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

— Allo, “Tez tibbiy yordam” eshitadi.
Bu — kunning istalgan vaqtida 103 qisqa raqamiga qilingan qo‘ng‘iroqqa javoban yangraydigan ovoz. Bayram yoki dam olish kuni, soat tungi 02:00 yoki tonggi 06:00 bo‘ladimi, ahamiyatsiz. Tez tibbiy yordamning navbatchilik qilayotgan har bir xodimi chaqiruvni tezkor, diqqat-e‘tibor bilan qabul qiladi. Chaqiruv sababi turlicha bo‘lishi mumkin. Kimnidir yurak-qon tomir kasalliklari yoki kuchli og‘riq bezovta qiladi, yana ichki qon ketish yoxud og‘ir jarohatdan aziyat chekayotgan bo‘ladi. Bemorlarga tez tibbiy yordam ko‘rsatishda har daqiqa, har soniya g‘animat. Uzoq‘i bilan 1-2 daqiqada chaqiruv qabul qilinib, bemorning manzili tez tibbiy yordam brigadasi planshetiga yuboriladi. Chaqiruvchi kim, yoshi nechada, nima shikoyati bor? Shifokor ham, feldsher ham bunday ma‘lumotlar bilan yo‘l-yo‘lakay qayta tanishib boradi. Asosiy maqsad — vaqtni yo‘qotmay, manzilga tez yetib borish. Vaziyat darhol baholalanib, bemorga zarur tibbiy yordam ko‘rsatiladi. Inson hayotini saqlab qolish uchun barcha imkoniyat ishga solinadi. Sustkashlikka yo‘l qo‘yish aslo mumkin emas. Axir gap inson hayoti ustida bormoqda.



“ Poytaxtda chaqiruvlarga yetib borish vaqti o‘rtacha 20-30 daqiqa bo‘lgan bo‘lsa, hozir o‘rtacha atigi 10-15 daqiqani tashkil etmoqda. Hududlarda ushbu jarayon 10-40 daqiqaga to‘g‘ri keladi.

bir brigadaga zarur dori-darmonlar ajratilgan. Tonometr, fonendoskop, pulsoksimetr, turli hajmdagi shprislar, bog‘lov materiallari va intensiv terapiya uchun preparatlar shular jumlasidan. Zamonaviy tibbiy uskunalar, dori-darmon, yonilg‘i va maxsus avtomobillar bilan to‘liq ta‘minlash orqali chaqiruvga tez va samarali javob berishga erishilayпти.

Umuman, o‘tgan sakkiz yilda “103” xizmati shoxobchalari soni 818 tadan 1680 taga, “Tez yordam” brigadalari 1648 tadan 2865 taga, bitta chaqiruvga dori-darmon uchun ajratilgan mablag‘ esa 750 so‘mdan 11 ming 800 so‘mga oshdi. Bu bilan ko‘rsatiladigan yordam sifati va xavfsizligi ta‘minlandi, og‘ir holatlarda inson hayotini saqlab qolish imkoniyati oshdi. Aholi soniga nisbatan xizmat qamrovi kengaydi. Bitta brigadaga tushadigan chaqiruvlar soni kamaydi. Tibbiyot xodimining ish yuklamasi yengillashgani har bir bemorga yetarlicha e‘tibor qaratish imkonini yaratdi.

brigadasi yo‘lga chiqardi. Avtomatlashtirilgan tizim orqali chaqiruvlarni qabul qilish, saralash mexanizmi yo‘lga qo‘yildi, jarayon optimallasildi. Ilgari bir tuman yoki hududiy tez tibbiy yordam xizmati, masofasi yaqin bo‘lsa ham, boshqa hudud aholisiga xizmat ko‘rsatishi mumkin emas edi. Endi tez tibbiy yordamning hududiy chegarasidan qat‘i nazar, bemorgacha bo‘lgan masofaning yaqinligiga qarab tibbiy brigada yo‘naltirilyapti.

Tizimning avtomatlashtirilishi dispetcherlik xizmatida inson omili bilan bog‘liq xatolar kamayishi, chaqiruvlarni ustuvorlik darajasiga ko‘ra tezkor taqsimlash imkonini bermoqda. Poytaxtda chaqiruvlarga yetib borish vaqti o‘rtacha 20-30 daqiqa bo‘lgan bo‘lsa, hozir 10-15 daqiqani tashkil etmoqda. Hududlarda ushbu jarayon 10-40 daqiqaga to‘g‘ri keladi.

Avtomatlashtirilgan tizim tez yordam mashinalarining joylashuvini real vaqt rejimida kuzatish imkonini berdi. Eng yaqin brigada chaqiruvga yo‘naltirilib, manzilga yetib borish vaqti qisqaradi. Bu esa, o‘z vaqtida, samarali tibbiy yordam ko‘rsatishga zamin yaratadi.

Kelgusida tizimni raqamlashtirish jarayoni yanada jadallashadi. Xususan, 2026-yilda “103”

xizmatida aholi uchun “Onlayn tibbiy maslahat” tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Sohada qo‘llanayotgan elektron dasturlar shifoxonalar hamda birlamchi tizim muassasalari bilan integratsiya qilinishi ko‘zda tutilgan.

“Issiq jon isitmasiz bo‘lmaydi”, deydi xalqimiz. Kutilmaganda tobimiz qochib, yordamga muhtoj bo‘lsak yoki biror ko‘ngilsiz holat tufayli jiddiy jarohatlanisak, eng avvalo, “Tez yordam”ga murojaat qilamiz. Tezkor yordam tufayli jiddiy va og‘ir asoratlarning oldi olinadi.



Tez yordam oddiy ish emas, bu — missiya.

Albatta, tez va sifatlil tibbiy xizmat ko‘rsatish, belgilangan manzilga yetib borishda avtotransport vositasining o‘mi alohida. Ilgari “103” brigadalarning manzilga kechikib borishi, transport vositalari yetishmasligi, borlari ham talabga javob bermasligi odatiy hol edi. Keyingi yillarda tizimda eskirgan avtotransport vositalari yangilariga almashtirildi. Tez tibbiy yordam xizmati GPS treker bilan ta‘minlandi,

soha uchun 1000 dona zamonaviy “Volkswagen Caddy” rusumli avtomashina sotib olinib, hududlarga taqsimlandi.

Yil manzaralari

— 2025-yildan boshlab “103” xizmatida elektromobillardan foydalanishga o‘tildi, — deydi Respublika tez tibbiy yordam markazi direktori o‘rinbosari Nozimjon Dalibayev.

muammolari” mavzusida tez tibbiy yordam xodimlarining I respublika syezdi o‘tkazildi. Anjumanda tez tibbiy yordam tizimining bugungi holati va rivojlanish istiqbollari, sohadagi ilg‘or xalqaro tajriba tahlil etildi. Tez tibbiy yordam xizmati faoliyatiga zamonaviy texnologiyalar va raqamli yechimlarni joriy etish, tibbiyot mutaxassislari malakasini oshirish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash masalalari muhokama qilindi.

Tez tibbiy yordam tizimiga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi natijasida 103 xizmatiga surunkali chaqiruvchilar ro‘yxatini tuzish va ularning chaqiruvini to‘liq tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Tahlillarga ko‘ra, 2025-yil yanvarda 36 ming 98 ta surunkali chaqiruv ro‘yxatga olingan. Yil oxirida esa bu ko‘rsatkich 16 ming 642 tani tashkil etib, 19 ming 456 taga yoki 54 foizga kamaygan. Natijada 5,5 milliard so‘m byudjet mablag‘i ortiqcha sarflanishining oldi olindi.

Hozir “Tez tibbiy yordamni tashkillashtirish va ko‘rsatish tartibi” hamda tez tibbiy yordam shifokori va feldsherning kasbiy standartlari loyihalari ishlab chiqilib, tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda takomillashtirilmogda.

Yangiliklardan biri joriy yilda ishga tushirilgan Call-back (qayta aloqa) tizimidir. U aholiga tez tibbiy yordam ko‘rsatish sifatini monitoring qilish va baholashga mo‘ljallangan bo‘lib, aholidan kelib tushayotgan shikoyatlar sonining keskin, ya‘ni 36 foiz kamayishiga xizmat qildi.

Yaqinda bir tanishim aytib qoldi: “Kuni kecha bir sabab yuzasidan tez yordam chaqirishimga to‘g‘ri keldi. 15 daqiqada yetib kelgan tibbiy brigada zarur yordamni ko‘rsatdi. Xushmuomala va malakali tibbiyot xodimlarining muolajasi va tavsiyalaridan ko‘nglim to‘ldi.

Ertasi kuni noma‘lum raqamdan qo‘ng‘iroq bo‘lib, ko‘rsatilgan tez yordamning sifati va tibbiyot xodimlarining salohiyati haqida so‘radi. Avvalroq bu tartib haqida eshitgandim, lekin aynan o‘zimning salomatligim va tibbiy xizmatdan roziligim haqida so‘ralganda, rosti, quvondim”.

Tez tibbiy yordam ko‘rsatib bo‘lingandan keyin Call-back tizimi orqali bemorga qo‘ng‘iroq qilib, ko‘rsatilgan tibbiy xizmat sifati, xodimlarning faoliyati, dispetcherlarning munosabati va muomalasi haqida so‘raladi. E‘tirozlar bo‘lsa, o‘rganilib, joyida bartaraf qilinadi.

Tez yordamga murojaat — shunchaki qo‘ng‘iroq emas. Har bir chaqiruv ortida inson taqdiri, umidi, salomatligi bilan bog‘liq xavotir yotadi. Bu tibbiyot xodimlaridan katta mas‘uliyat, vijdonan yondashuvni talab etadi. Sifatli va zamon talablariga mos tez tibbiy yordam ko‘rsatishda esa sohadagi yangilanishlar, yaratilgan shart-sharoit, “inson qadri uchun” g‘oyasini o‘zida mujassam etgan egzu maqsad katta ahamiyat kasb etayotir.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Zamonaviy tibbiyotning eng muhim yo‘nalishi

Keyingi yillarda mazkur xizmatni takomillashtirish, zamonaviy avtotransport vositalari bilan ta‘minlash, sohaga raqamli ilg‘or texnologiyalarni keng joriy etishga alohida e‘tibor qaratilyapti.

Ilgari tez tibbiy yordam tizimi “tez yordam” deb yuritiluvchi alohida bo‘linmalardan iborat bo‘lib, markazlashgan tuzilmaga ega emasdi. Stansiya va podstantsiyalarning turli tuzilmalarga qarashliligi xizmat ko‘rsatish sifatiga ta‘sir qilardi. Davlatimiz rahbarining 2022-yil 16-iyundagi “Aholiga tez tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori asosida sohadagi ishlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Jumladan, Respublika tez tibbiy yordam markazi va uning 14 ta hududiy filiali tez tibbiy yordam xizmati hamda tibbiy avtoxo‘jaliklar negizida tashkil qilindi, shuningdek, yagona vertikal boshqaruv tizimi yo‘lga qo‘yildi. 2022-yildan buyon tizimga tegishli 100 ga yaqin bino va inshoot qurilib, kapital ta‘mirlandi. Qulay va zamonaviy infratuzilma xizmat ko‘rsatish sifatining tubdan yaxshilanishiga asos bo‘ldi.

Tez tibbiy yordam brigadalari avtomashina, aloqa vositalari, planshet va boshqa zarur tibbiy uskunalar bilan to‘liq ta‘minlangan. Har

Elektron boshqaruv tizimi

Davlatimiz rahbarining mazkur qaroriga binoan tez tibbiy yordam bo‘yicha elektron avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi yo‘lga qo‘yildi. Natijada chaqiruvlarga yetib borish vaqti keskin qisqardi. Bundan tashqari, Toshkent shahri tajribasi asosida markazning hududiy filiallariga yagona “Call-markaz”lar faoliyati tashkil etildi.

— Tez yordamda har bir soniya qimmatli, qarorlarni tez va aniq qabul qilish hal qiluvchi ahamiyatga ega, — deydi Respublika tez tibbiy yordam markazi direktori Abduvoitjon G‘ofurov. — Avtomatlashtirilgan tizimga o‘tishdan oldin chaqiruvni qayd etishning o‘ziga 8-10 daqiqa ketardi. Hozir soniyalarda, uzog‘i bilan 1-2 daqiqada chaqiruvni qabul qilib, tez tibbiy yordam brigadasi planshetiga manzili yuborilaypti. Bu bemorga o‘z vaqtida zarur yordam ko‘rsatish, inson hayotini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ilgari chaqiruv qo‘lda yozilib, kompyuterga kiritilar, keyin tumandagi bo‘limga yuborilardi. Shundan so‘ng tuman bo‘limida yana qayta ro‘yxatga kiritilib, keyingina tez tibbiy yordam

Nuqtayi nazar

Bugun insoniyat taraqqiyoti tarixida mutlaqo yangi bosqich shakllanmoqda. Iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslar cheklanganligi, atrof-muhit degradatsiyasi va ekologik xavfsizlik masalalari endilikda faqat ekologlar yoki alohida soha mutaxassislari muammosi emas, balki butun jamiyat va davlatlar oldidagi strategik vazifaga aylandi. Shu ma’noda, “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi XXI asrning eng muhim rivojlanish modeli sifatida maydonga chiqmoqda.



Olimjon DUYSENBOYEV,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori

kamaytirish, elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalar ulushini sezilarli darajada oshirish kabi aniq va ulkan maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ygan. So‘nggi yillarda quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishiga jalb etilayotgan milliardlab dollarlik investitsiyalar ushbu yo‘nalishning naqadar katta iqtisodiy salohiyatga ega ekanini ko‘rsatmoqda.

Biroq aniq tushunish kerakki, “yashil iqtisodiyot”ning muvaffaqiyati faqat texnologiya

“YASHIL IQTISODIYOT” VA OLIY TA’LIM UYG’UNLIGI

BU QANDAY BO‘LISHI KERAK?





USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



tayyorlash bilan cheklanib qolmasligi kerak. Ular ilmiy tadqiqot, innovatsiya va jamoatchilik ongini shakllantirish markazlariga aylanishi zarur. Qayta tiklanuvchi energiya, suv resurslarini boshqarish, “yashil” qurilish, “aqlli” qishloq xo‘jaligi va iqlim texnologiyalari yo‘nalishlaridagi ilmiy izlanishlar real iqtisodiyot ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘lanishi muhim.

Hukumat, biznes va oliy ta‘lim muassasalari hamkorligiga asoslangan “uch tomonlama spiral” modeli “yashil” innovatsiyalarni amaliyotga tez joriy etish imkonini beradi. Bunday model

faoliyatining ekologik jihatdan shaffofligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

An‘anaviy buxgalteriya tizimi ko‘pincha faqat moliyaviy natijalarga e‘tibor qaratadi. “Yashil” buxgalteriya hisobi esa ekologik xarajatlar, karbon izi, atrof-muhitga ta‘sir kabi omillarni iqtisodiy tahlilga integratsiya qilish imkonini beradi. Bu esa davlat va biznes darajasida yanada asosli va mas‘uliyatli qarorlar qabul qilishga ko‘maklashadi.

“Yashil iqtisodiyot”ning mustahkam poydevori ilmiy tadqiqot faoliyatitsiz barpo etilmaydi. Iqlim ssenariylarini baholash, suv va energetika balansini modellashtirish, cho‘llanishga qarshi kurashish, energiya tejamkor materiallar yaratish kabi yo‘nalishlar uzoq muddatli va kompleks tadqiqotlarni talab qiladi. Bu borada xalqaro hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Erasmus+, BMT va boshqa xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikdagi qo‘shma loyihalar professor-o‘qituvchilar salohiyatini oshirish, yangi o‘quv kurslarini joriy etish va talabalarning akademik mobilligini kengaytirishga xizmat qiladi va bitiruvchilarning nafaqat ichki, balki xalqaro mehnat bozorida ham raqobatbardosh bo‘lishiga zamin yaratadi.

Oliy ta‘lim muassasalarining o‘zi ham “yashil kampus” tamoyillari asosida rivojlanishi muhim. Energiya samarador binalar, quyosh panellari, suvni tejovchi texnologiyalar, chiqindilarni saralash va qayta ishlash tizimlari, keng ko‘lamli ko‘kalamzorlashtirish ishlari talabalarga “tirik laboratoriya” vazifasini bajaradi. Bunday jarayon yoshlarda ekologik mas‘uliyat va ongli munosabatlarni shakllantiradi.

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish yangi O‘zbekiston uchun faqat iqtisodiy islohot emas, balki ta‘lim, tafakkur va madaniyat islohotidir. Oliy ta‘lim tizimi bu jarayonning bosh drayveriga aylangan taqdiridagina mamlakatimiz barqaror va raqobatbardosh rivojlanish yo‘liga qat‘iy qadam qo‘yadi. Oliy ta‘lim muassasalari bilim va innovatsiya markazi sifatida “yashil” g‘oyalarni amaliyotga tabiiy etishi kerak. Chunki barqaror kelajak aynan shu dargohlardan boshlanadi.

Tejamkor jamiyat sari

ISROFGARCHILIK

faqirlikka yetaklaydi

DABDABABOZLIK —

QADRIYAT SANALMAYDI!

Obiddin MAHMUDOV,
Iqtisodiyot va moliya vaziri
maslahatchisi

Inson borki, oʻz oldiga ezgu maqsadlar qoʻyib yashaydi va ularga erishish yoʻlida tinmay harakat qiladi. Shunday orzu-niyatlardan biri zurriyodlari kamolini koʻrishdir. Afuski, bugun aksariyatimiz farzandlar kamolini toʻyu hashamlar, dangʻillama imoratlar va turli rusumdagi avtomashinalarga bogʻlaydigan, aynan shu maqsadda yelib-yuguradigan avlodga aylanib qoldik. Kimoʻzarga toʻy qilish, “men sendan kammi” qabilida ish tutish, dongʻi yetti mahallaga yetadigan maʼraka oʻtkazishni goʻyoki qadriyat va anʼana darajasiga koʻtardik.

Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi tahlillariga koʻra, yurtimizdagi toʻyxonalarga sarflanadigan mablagʻlarning oʻrtacha miqdori 2025-yil yanvar holatida taxminan 2 milliard 383 million AQSH dollarini tashkil etmoqda.

Ming taassufki, bir kunlik orzu-havas va ikki soatlik toʻy deb yillar davomida toʻplagan boylikdan bir kunda mahrum boʻlmoqdamiz. Yoxud toʻy uchun olingan bank kreditini yillab toʻlash vaji bilan musofirlikda ishlash, halovatlardan kechish singari chorasizlikni oʻz ixtiyorimiz bilan zimmamizga olyapmiz. Eng achinarlisi, faqat dabdababozlik va katta sarf-xarajatgina ikki yoshga baxt keltiradi, saodat kafolati boʻladi degan aqida asosida yashay boshladik...

Bu bilan biz oʻtmish xatolarini qayta-qayta takrorlamoqdamiz. XX asming 80-90-yillarida Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnografiyasi, xususan, oʻzbek toʻy marosimlari xarajatlarini tahlil qilgan taniqli tadqiqotchi Olga Suxareva bunday yozgan edi: “Bugungi kunda tizimli ravishda davom



etib kelayotgan marosimlarga juda koʻp miqdorda pul sarflanishi nafaqat oila, balki butun jamiyat iqtisodiyotiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Shu sababli bu sarflar irratsionaldir (yaʼni mantiqsizdir). Shu oʻrinda mutafakkir Abdulla Avloniyning fikrlariga eʼtibor qarataylik: “Iqtisod deb pul va mol kabi neʼmatlarning qadriini bilmakni aytilur. Mol qadriini biluvchi kishilar oʻrinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, oʻmi kelganda soʻmni ayamasi”.

Demak, ayni holatni endi bunday davom ettirib boʻlmaydi! Axir biz foyda-zararni farqlay oladigan ongli mavjudotmiz. Qolaversa, bugun dunyoga boʻylashyapmiz. Bir paytlar olamga dovruq taratgan, bir emas, ikki Renessansga beshik boʻlgan ajodlarning mavridi sifatida maddonga chiqmoqdami. Aynan juda baland olganmiz. Shunday ekan, necha yuz yillardan buyon oyogʻimizga tushov boʻlib kelayotgan illatlardan va soxta qadriyatlardan voz kechishimiz shart! Xalqimiz “Bejugʻlining ishi bejugʻlik”, deb bejiz aytganmiz. Bugun jamiyatimizda kimoʻzarga urchibotgan dabdababozlik millat va elatning iqtisodiy salohiyatini belgilaydi. Iqtisodiyotning oʻziga xos qonun-qoidalari bor va ular bilan hisoblashmaslik mushkul vaziyatga, yaʼni faqirlikka olib kelishi tayin. Ularni menimsaslik esa nafaqat iqtisodiy salohiyat yetishmasligi, balki maʼnaviy qashshoqlik belgisi hamdir. Zero, iqtisodiy munosabotlar barqarorligi oiladan boshlanadi. Oila esa jamiyatning asosiy boʻgʻinidir. Agar oila oʻziga keraksiz illatlardan voz kecha olsa, maʼnaviy sogʻlom jamiyat sifatida kuchli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish mumkin boʻladi.



TEJALSA, TOʻYGA HAM,
UYGA HAM YETADI

Bugun yosh avlodga “uni qil, buni qilma”, deb emas, balki ular uchun maʼnaviy va moddiy ahamiyatga ega boʻlgan yoʻnalishda toʻgʻri yoʻl koʻrsatish barchamiz uchun ham foydali, ham joizdir.

Misol tariqasida uy-joy sotib olish uchun fuqarolarga subsidiya toʻlash tartibini olaylik. Unga koʻra, davlat subsidiyasi yordamida uy-joy sotib olish uchun ariza yuborgan fuqaroning shart-sharoitlari amaldagi tartib talablariga mos kelsa, talaborga subsidiya xabarnomasi beriladi.

Ushbu subsidiya xabarnomasi bilan talabgor, agar Qoraqalpogʻiston Respublikasi va viloyatlardan hujjat topshirgan boʻlsa, 330 million soʻm, Toshkent shahrida esa 420 million soʻmgacha boʻlgan miqdorda kredit olish imkoniga ega boʻladi. Shu bilan birga, davlat tomonidan boshlangʻich toʻlov uchun 30 million soʻm miqdorida begʻaraz (qaytarilmaslik sharti bilan) mablagʻ ajratiladi hamda 5 yil davomida kreditning 14 foizdan oshgan qismi qoplab beriladi. Masalan, kredit muddati 20 yil va uning umumiy foiz stavkasi 18 foiz boʻlsa, fuqaro 5 yil davomida 14 foizini, davlat esa 4 foizini toʻlaydi.

Demoqchimizki, agar boʻljajak yosh oila mana shu toifaga tushsa, bu imtiyozdan unumli

foydalanishi nur ustiga nur boʻlar edi. Buning uchun toʻyga ketadigan turli-tuman ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirib, mablagʻning asosiy qismini yosh oila uchun uy-joy sotib olishga yoʻnaltirish kifoya. Shu bahonada, xalqimiz tili bilan aytganda, bir yosh oila mulk egasiga aylanib, “vatani” boʻlib qolarmidi...

Keling, shu oʻrinda yana bir statistik maʼlumotga eʼtibor qarataylik. Tahlillarga koʻra, toʻy xarajatlarini 30-40 foiz tushirish orqali oʻrtacha oila jamgʻarmasini 15-20 foiz oshirish, bank kreditlariga ehtiyojni 10-12 foiz kamaytirish va xizmatlar sektoridagi norasmiy aylanmani 8-10 foiz qisqartirish mumkin.

Biz bor-yoʻgʻi birgina misol keltirdik, xolos. Bunday misollarni taʼlim, sport va boshqa qator yoʻnalishlarda ham keltirish mumkin.

Umuman olganda, mamlakatimizda yoshlarimiz uchun yaratilayotgan yengilliklardan oqilona foydalanish va ularni turmush tarizimizga tatbiq etish salmoqli ijobiy natijalarga erishishga sabab boʻladi. Xususan, bu oilaviy va ijtimoiy muammolar barham topishiga, toʻy-hashamlardagi dabdababozliklar kamayishiga hamda yurtodsharimizning toʻlov qobiliyati oshishiga zamin yaratadi.

Shubhasiz, toʻy-hashamdagi tejamkorlik oilalardagi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi, jamgʻarma va investisiya imkoniyatlarini kengaytiradi, iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishini taʼminlaydi. Uzoq muddatli istiqbolida esa ushbu siyosat jamiyat miqyosida barqaror oʻsish, ijtimoiy tenglik va moliyaviy masʼuliyat madaniyati shakllanishiga xizmat qiladi.



Shuningdek, ommaviy musobaqalar orqali oʻtgan yilda bir qancha iqtidorli yoshlar sport taʼlim muassasalariga seleksiya qilinib, doimiy shugʻullanish uchun yoʻnaltirildi. — Joriy yilda ommaviy sport musobaqalarida qatnashish maqsadida roʻyxatdan oʻtgan 7 million 300 ming oʻgʻil-qizning 6 million 600 ming nafari “Besh tashabbus olimpiadasi” musobaqalarida kuch sinashdi, — deydi Sport vazirligining Ommaviy sportni rivojlantirish boʻlimi boshligʻi Sherzod Olimov. — Bundan tashqari, Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi bilan hamkorlikda 4 million 200 ming oʻquvchi oʻrtasida toʻqqiz turdagi musobaqa oʻtkazildi. Qolaversa,

465 ming talaba, akademik litsey hamda kasb-hunar kollejida oʻqiyotgan 300 mingdan oshiq oʻquvchi shu yilning oʻzida beshta sport musobaqasida qamrab olindi.

Sport intizom, sabr-toqat, maqsadga intilish, masʼuliyat kabi xususiyatlarni rivojlantirishini inobatga olsak, uning sogʻlom va barkamol avlodni tarbiyalashdagi oʻmi nechoqʻliq ahamiyatli ekanini ayon boʻladi. Qolaversa, bu yoshlarning boʻsh vaqtni mazmunli tashkil etish, ularni sogʻlom va faol hayotga yoʻnaltirish, qobiliyat va iqtidorlarini qoʻllab-quvvatlash, milliy sport oʻyinlarini ommalashtirishga xizmat qiladi.

Sohada yoʻlga qoʻyilgan ushbu tizim va yondashuv yoshlarni ommaviy sportdan boshlab professional sportchi sifatida tayyorlashda zamin boʻlmoqda. Raqamlashtirishning keng joriy qilinishi iqtidorli sportchilarni topish, saralash va tayyorlashda muhim omil boʻladyotir. Ommaviy sport musobaqalarini shaffof va adolati oʻtkazish uchun alohida 5tashabbus.uz elektron platformasi ishga tushirilgan. Yoshlar yetakchilari va sport masʼullari elektron platforma orqali ishtirokchilarni roʻyxatga oladi, mahalla jamoalarini shakllantirib, ularning natijalarini ushbu tizimga kiritib boradi.

“Mahallamizda sport maydonchasi qurildi”

“Besh tashabbus olimpiadasi”ning respublika bosqichida sovrindor boʻlgan jamoalar oʻz mahallasida sport maydonchasi qurib berilishi imkoniyatini qoʻlga kiritadi. Bu nafaqat yoshlar, balki butun mahalla ahli hayotida ijobiy birulish yasaydigan muhim oʻzgarishlarga turki boʻlmoqda. Masalan, aholining sogʻlom va faol hayot tarzi uchun sharoit yaratilyapti, turli sport tadbirlari, musobaqalar oʻtkazilyapti. Bu esa birdamlikni mustahkamlay, mahallaning maʼnaviy va madaniy rivojiga ulkan hissa qoʻshyapti.

— 2022-yil Xorazm viloyatida sportning yengil atletika turi boʻyicha 27-30 yosh

SOGʻLOM VA BARKAMOL AVLOD ORZUSI

Salomatlikni mustahkamlash, umr davomiyligini oshirish, sogʻlom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati katta. Shu bois, “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasida ham sogʻlom turmush tarzini rivojlantirish maqsadida ommaviy sport musobaqalarida aholi qamrovini kengaytirish vazifasi belgilab olingan. “Besh tashabbus olimpiadasi” ommaviy musobaqalar va sport turlarini aholi, ayniqsa, yoshlar oʻrtasida ommalashtirishda muhim omil boʻlmoqda. Oʻtgan davrda unda sport turlari soni 9 tadan 13 tagacha koʻpaytirilib, ilk bor nogironligi boʻlgan shaxslar oʻrtasida ham 5 ta yoʻnalishda 7 ta sport turi boʻyicha musobaqa oʻtkazish yoʻlga qoʻyildi.

toifasida oʻtkazilgan musobaqada ikkinchi oʻrinni qoʻlga kiritgandik, — deydi Buxoro viloyati Peshku tumani Oʻzbek mahallasi yoshlar yetakchisi Mirjalol Boboqulov. — Bu mahallamizda vorkaut sport maydonchasi qurilishi imkoniyatini berdi. 2023-yilda esa yengil atletika turi boʻyicha Samarqandda oʻtkazilgan musobaqada 22-26 yosh toifasida qizlarimiz uchinchi oʻringa munosib koʻrildi va mahallamizda yana bir



vorkaut maydonchasi qurib foydalanishga topshirildi. 2023-yilda voleybol boʻyicha Toshkent viloyatida boʻlib oʻtgan ichki ishlar vaziri kubogi uchun bellashuvda yigitlar 22-26 yosh toifasida birinchi oʻrinni egalladi. 2024-yil Toshkent viloyatida yengil atletika boʻyicha 27-30 yosh toifasida qizlarimiz ham yuqori natija qayd etdi. Bu muvaffaqiyatlar mahallamizda ikkita universal sport maydonchasi qurilishiga zamin boʻldi. Hozir barcha sport anjomlari bilan taʼminlangan maydonchalar mahallamiz koʻrkiga koʻrish qoʻshib turibdi. Yetti yoshdan yetmishi yoshgacha insonlar bu yerda turli faol harakatlari bilan mashgʻul.

2022-2025-yillarda “Besh tashabbus olimpiadasi” musobaqalarida sovrindor boʻlgan yoshlarning mahallasida sport maydonchalari qurish tizimi asosida 390 ta universal, 314 ta sribol-vorkaut va 346 ta vorkaut maydonchasi aholi ixtiyoriga topshirildi. Shunday maskanlardan biri Navoiy viloyati Xatirchi tumani “Jaloyir” MFYda barpo etildi.

“Besh tashabbus olimpiadasi”ning 2025-yilgi mavsumida mahalla yoshlari shaxmat, gandbol, voleybol, kurash, yengil atletika, mini futbol musobaqalarida sovrinli oʻrinlarni qoʻlga kiritdi. Bu muvaffaqiyat

mahallada 3 ta universal, 2 ta vorkaut maydonchasi qurilishiga yetarli boʻldi.

Hozir bu joylar nafaqat yoshlar, balki katta yoshli insonlarning ham sevimli maskaniga aylangan. Mahalla ahli bu yerda yurish, yugurish va boshqa yengil sport turlari bilan shugʻullanyapti. “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasida jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shugʻullanishi uchun kamida 5 mingga mahallada sport infratuzilmasi vujudga keladi degani. Quyi boʻgʻindan boshlangan bu sharoit sogʻlom va kuchli avlod kamoli, xalqaro arenalarda mamlakat sharafiga munosib himoya qiladigan iqtidorli sportchilar yetishib chiqishiga zamin hozirlaydi.

Qamrov kengayib bormoqda

— Ayni paytda mamlakatimizdagi 254 ta sport maktabida 14 mingdan ortiq trener-murabbiy faoliyat yuritaypti, — deydi Sherzod Olimov. — Ularning har biri turli toʻgaraklarda 31 nafardan shogird tayyorlaydi. Kelgusida har bir murabbiyga 40 dan ortiq yosh sportchi birkiritilishi koʻzda tutilgan.

“Besh tashabbus olimpiadasi”ning 2025-yilgi mavsumida mahalla yoshlari shaxmat, gandbol, voleybol, kurash, yengil atletika, mini futbol musobaqalarida sovrinli oʻrinlarni qoʻlga kiritdi.

Gʻayratli keksalar

Davlatimiz rahbari boshchiligidagi shu yilning 13-fevral kuni olimpiya va paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholi jismoniy faolligini oshirish chora-tadbirlari boʻyicha oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida ommaviy sportni rivojlantirish va sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish masalalariga ham alohida eʼtibor qaratildi. Oʻtgan yili musobaqalarda yoshlar qamrovi 10 millionga yetgani, lekin katta yoshdagi insonlarning sportda ishtiroki kamligi taʼkidlangandi.

— Joriy yilda ilk bor 30 yoshdan yuqori boʻlgan aholi oʻrtasida yettita sport turi boʻyicha musobaqalar tashkil etildi. Bellashuvlarda ishtirok etish istagida 2 milliondan ortiq aholi roʻyxatdan oʻtdi, — deydi Sherzod Olimov. — 1 million 600 nafar sportsevar insonni mahalla bosqichida sport musobaqalariga qamrab olishga erishdik. Shuningdek, 7 ta adaptiv sport turi boʻyicha oʻtkazilgan musobaqalarda nogironligi bor boʻlgan 71 mingdan ortiq aholi ishtirok etdi.

Bugungi kunda sportning nafaqat yoshlar, balki keksa avlod hayotida ham oʻrni va ahamiyati ortib borayotir. Chunki organizm quvvati, hayotiy funksiyalarini uzoq muddat barqaror saqlanishida sportning oʻrni alohida. Jismoniy faollik yoshi ulugʻ insonlarning hayot sifati yaxshilanishiga katta hissa qoʻshadi.

Ushbu yilda “Gʻayratli keksalar” shiori ostida nuroniyalar oʻrtasida oʻtkazilgan ommaviy sport musobaqalari ana shu maqsadni oʻzida mujassam etdi. Musobaqalar qisqa fursatda yurtimizning barcha hududlari, mahallalarini qamrab oldi. Mazkur sport tadbirlari doirasida mini futbol boʻyicha respublikamiz boʻylab 2152 ta musobaqa tashkil etilib, 42 ming 377 nafar nuroniy gʻoliblik uchun bellashdi. Bellashuvlarning tuman va viloyat bosqichlari nuroniyalar uchun chin maʼnoda sport bayrami tusini oldi.

Sogʻlom turmush tarzi va sportga ishtiyoqi baland otaxon-onaxonlar hatto erta tongni oʻz safdoshlari bilan badantariyadan boshlab, kun davomida mini futbol, shaxmat-shaxsha, stol tennis, sribol, yurish, yugurish kabi mashgʻulotlar bilan band boʻlmoqda.

— 72 yosh boʻlishing qaramay, yugurishni kanda qilmayman, — deydi fargʻonalik Ilyosjon Niyozov. — Shu yil noyabr oyida Samarqand, Fargʻona va Andijon viloyatlarida oʻtkazilgan xalqaro marafonda faxrli oʻrinlarni qoʻlga kiritdim. Sport ruhimga va tanamga mislsiz quvonch hadya etadi. Koʻplab doʻstlar ortirdim. Eng asosiysi, mustahkam sogʻligʻim bor.

Darhaqiqat, sport ruhiy barqarorlik, jismoniy salomatlik, aqliy ravshanlik, maʼnaviy bardavomlik oʻrtasidagi mukammal muvozanatdir.

Hech kim eʼtibordan chetda qolmaydi

Davlatimiz rahbari raisligida 13-fevralda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida parasport imkoniyatlariga ham alohida toʻxtalib oʻtildi. Ilgari bu toifadagi yoshlar uchun atigi 33 ta maktabda sport toʻgaraklari boʻlgan, bugun bunday maktablar soni 235 taga yetgani, parasport bilan muntazam shugʻullanuvchilar 4 karra koʻpayib, 7 mingdan oshganiga eʼtibor qaratildi.

Yaqinda poytaxtimizda Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Paralimpiyachilarning matonat maktabi, Adaptiv sport turlari assotsiatsiyasi, Oʻzbekiston Milliy paralimpiya qoʻmitasi va boshqa tashkilotlar hamkorligida “Paralimpiyachilar matonati” xalqaro forumi boʻlib oʻtdi. Forum doirasida tashkil etilgan “Adaptiv sport” festivali nogironligi boʻlgan shaxslarga barcha sohalarida teng imkoniyat yaratish, adaptiv sport turlarini rivojlantirish va ommalashtirish, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport orqali ularning ijtimoiy integratsiyasini qoʻllab-quvvatlash maqsadini koʻzda tutdi.

Tadbir doirasida katta yutuqlarga erishgan nogironligi boʻlgan mashhur insonlar bilan ruhlanitiruvchi uchrashuvlar, adaptiv sport infratuzilmasi va taʼlim dasturlarini takomillashtirish masalalariga bagʻishlangan muhokama sessiyalari inson qadriini yuksaltirish, inklyuziv jamiyatni rivojlantirish kabi ezgu maqsadni oʻzida mujassam etdi.

“Paralimpiyachilar matonati” xalqaro forumi va “Adaptiv sport” festivali nogironligi boʻlgan insonlarning irodasi, jasorati va faol hayotga intilishini namoyon etuvchi muhim xalqaro maydon vazifasini oʻtadi.

Tadbir jamiyatda inklyuzivlik madaniyatini mustahkamlash, iqtidorli ishtirokchilarni kashf etib, parasportning professional turlariga yoʻnaltirish hamda yoshlar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini targʻib etishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli boʻldi.

Risolat HAYITQULOVA, jurnalist